

---

## Kaftdek tomorqa — katta daromad manbai

Yerdan unumli foydalanish har bir qarichi oltinga teng b̄ylgan mamlakatimizda bugungi kunda asosiy mavzuga aylanib qolgan. Bu masalaga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilayotgani ham bejiz emas. Aholi tomorqasidan unumli foydalanish, kichik imkoniyatdan yuqori daromad olishni tumanimiz ahli yaxshi o'zlashtirgan.

Bu borada tumandagi "Uyrat" mahallasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugun tuman hokimi va tuman prokurori ushbu mahallada yashovchi Sardorbek Nabiev xonadonida bo'lishib, tomorqadan samarali foydalanish borasidagi ishlarini kuzdan kechirishdi. Ayni damda ushbu fuqaro o'z tomorqasida 3 sotix yerda issiqxona tashkil qilib, qulupnay yetishtirishni yo'lga qo'ydi.

Darhaqiqat, tomorqa-rizq-nasiba, mo'may daromad manbai. Uning dasturxonlarimiz to'kinligi, aholi turmush farovonligi, yurt obodligini ta'minlashdagi o'rnining esa qiyosi yo'q. Hamma gap undan nechog'li oqilona foydalana olishdadir. Uning dasturxonimiz fayzu barakasi, aholi turmush farovonligi, yurt obodligini ta'minlashdagi o'rni beqiyos. Shunday ekan, ayni ekin-tikin mavsumida fursatni boy bermay, kaftdek tomorqani bo'sh qoldirmasdan ekin ekish, nihol qadash, pirovardida aholi bandligi hamda turmush farovonligini ta'minlashga mustahkam poydevor yaratish davrning talabidir.

**Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2025-01-27 16:38:03